

## QADIMGI TURKIY LUG'ATLARDA KELITIRILGAN KASALLIK NOMLARINING LINGVISTIK TAHLILI

*Abdurayimova Lobar*

*TerDu talabasi*

*Ilmiy rahbar: Xidirova Iroda*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kasallik nomlari bir nechta lug'atlar asosida tahlil qilingan. So'zliklarning o'xshashlik, farqli hamda fonetik, leksik jihatlari haqida ilmiy-amaliy mulohazalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** "Devoni lug'otit turk", "Древнетюркская словарь", "At-tuhfatuz zakiyatu fil-lug'atit turkiya", "Kelurnoma", fonetik farq, leksik farq, transkripsion farq

Leksikografiya tilshunoslikning lug'at tuzish bilan shug'ullanuvchi va u bilan aloqador masalalarni o'rganuvchi sohadir. Qadimgi turkiy tillar davrida ham leksikografiyaga oid lug'atlar yaratilgan. Ularning ba'zilari haqida to'xtalib, lug'atlardagi so'zliklarning fonetik, leksik jihatlari e'tibor qaratsak. Qadimgi turkiy tilda yozilgan lug'atlarda keltirilgan kasallik nomlarini ifodalovchi leksemalar talaygina hisoblanadi. Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'otit-turk" ("Turkiy so'zlar devoni" — turkiy tillar haqidagi qomusiy asari (1071—72). (Bu asarda XI asrning 2-yarmida Markaziy Osiyoda va G'arbiy Xitoy hududida istiqomat qilgan turkiy urug' va qabilalar, ularning ijtimoiy ahvoli, tili va tarixiga oid qimmatli ma'lumotlar yozib qoldirilgan). "At-tuhfatuz zakiyatu fil-lug'otit-turkiya" ("Turkiy til haqida noyob tuhfa") (keyingi o'rinlarda "At-tuhfat") hamda XVII asrda yozilgan muallifi Muhammad Yoqub Chingiy bo'lgan turkiy va forsiy lug'at "Kelurnoma" kabi asarlarda nafaqat inson balki, hayvonlarda ham uchraydigan kasallik nomlari keltirilgan.

Endi ushbu lug'atlarda keltirilgan so'zliklarning o'xshash va farqli jihatlari hamda fonetik va morfologik tahlilini ko'rib chiqsak. Masalan, "yiring" leksemasi "Devonu lug'otit turk" asarining 1-tomida "ириң" (154-bet) shaklida, "At tuhfatur zakiyatu fil-lug'otit turkiya" asarida ham "ириң" (99-bet) ko'rinishida ya'ni har ikkala lug'atda aynan bir xil holatda kelgan. Bundan tashqari "Devoni lug'otit turk" lug'atining 1-tomida "кэзік" (372-bet), 2-tomida esa "бэзгак" — (byozgak), (334-bet) kabi aynan "bezgak" so'zining bir lug'atning o'zida ikki xil leksema orqali ifodalanishi hamda "Kelurnoma" lug'atida "пэзгэк" (356 5) shaklida ya'ni fonetik o'zgarishga uchragan holda berilgan.

Lug'atlarda keltirilgan so'zliklarning fonetik o'zgarishga uchragan shakllari ham sezilarli darajadadir. Misol sifatida "Devoni lug'otit turk" asarida "chechak" kasalligi "чэкэк" (369-bet), ko'rinishida, "At tuhfatur zakiyatu fil-lug'otit turkiya" asarida "

шэщӓк ” (39-bet) holida qoʻllangan. Soʻzliklarning fonetik hamda transkripsion farqlarini hudud va sheva nuqtai nazaridan ham olib qarash joizdir. Chunki adabiy tilidagi biror soʻzni har bir sheva vakillari har xil holatda qoʻllashi mumkin. Yaʼni “Древнетюрская словарь” asarida “shish” soʻzining transkripsion jihatdan farq qiluvchi “siš va šiš ” (432-bet) koʻrinishidagi ikki xil varianti keltirilgan. Aynan ushbu “shish” soʻzi yana “Devoni lugʻotit turk” asarining 1-tomida leksik nuqtai nazardan farq qiladigan “бapc” leksemasi shaklida berilgan. Umuman olganda lugʻatlardan keltirilgan kasallik nomlari bilan bogʻliq soʻzlarning ayrimlari bir xil koʻrinishda uchrasa-da, aynan bir leksemaning bir biridan farq qiluvchi ikki xil shaklda qoʻllanilishi koʻp uchraydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. M.Qoshgʻariy “Devoni lugʻotit turk”. – Toshkent: Fanlar Akademiyasi, 1963
2. “At tuhfatuz zakiyatu fil- lugʻotit turkiya”. – Toshkent: Fan. 1968
3. Muhammad Yoqub Chingiy “Kelurnoma” (Kelur – name).– Toshkent: Fan, 1982
4. “Древнетюркская словарь”
5. Xidirova, I. ., & Dobilova, M. (2023). IMLO MUAMMOLARI VA YECHIM. Modern Science and Research, 2(3), 138–141.